



INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA BILVOSITA TAQIQNING KOMMUNIKATIV STRATEGIYALARI

Hojiyeva Marjona To'lqinovna

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22672126>

Taqiq kategoriyasining lisoniy ifodasi nafaqat negativ imperativ va performativ konstruksiyalar bilan, balki adresatning xatti-harakatini bilvosita cheklovchi kommunikativ strategiyalar bilan ham amalga oshadi. Bilvosita taqiqda so'zlovchining prohibitiv maqsadi maxsus taqiq fe'li yoki bo'lishsiz buyruq shakli bilan ochiq ifodalanmaydi; adresat harakatining cheklanishi xabar, savol, baholash, sabab, oqibat, maslahat yoki taklif kabi birlamchi kommunikativ shakllar orqali anglashiladi. Ushbu tezisning maqsadi ingliz va o'zbek badiiy nasridan to'plangan misollar asosida bilvosita taqiqning asosiy kommunikativ strategiyalarini aniqlash va ularning ikki tildagi funksional-pragmatik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishdir.

Kalit so'zlar: bilvosita taqiq, kommunikativ strategiya, pragmatika, direktiv nutq akti, inferensiya, ingliz va o'zbek tillari, qiyosiy-tipologik tahlil.

Bilvosita taqiqni aniqlash mezonlari. Tadqiqot materialini saralashda uch mezon birgalikda qo'llaniladi: 1) adresatga yo'naltirilganlik: gap muayyan yoki umumlashgan adresatning xulqiga ta'sir qilishi kerak; 2) prohibitiv natija: kutilayotgan natija adresatning harakatni bajarmasligi, to'xtatishi yoki undan voz kechishidir; 3) inferensial bog'lanish: bu natija grammatik shakldan emas, balki vaziyat, norma, sabab yoki oqibat orqali kelib chiqadi. Mazkur mezonlar bilvosita taqiqni shakliy emas, funksional-pragmatik kategoriya sifatida belgilaydi


1. Xabar va baholash orqali cheklash strategiyasi. Bu strategiyada so'zlovchi harakatni taqiqlash o'rniga uni nomaqbul yoki xavfli deb baholaydi, natijada cheklov go'yoki hodisaning o'z xususiyatidan kelib chiqqandek taqdim etiladi. Ingliz misolida:

"Look here, Jelks. What on earth are you thinking about? These things are much too dangerous. Give me the saw"

gapida ritorik-tanbeh savoli va baholovchi bayonot orqali xavf asoslanib, muqobil harakat taklif etiladi. O'zbek misolida shart-oqibat munosabati orqali shunga yaqin mexanizm kuzatiladi:

"Rozetta operetta teatriga bilet olib qo'ygan, bormasam xafa bo'ladi"

bu yerda harakat grammatik jihatdan mumkin bo'lib qoladi, biroq salbiy hissiy oqibat uni pragmatik jihatdan nomaqbul qiladi. Demak, ingliz misolida xurofiy-xavfli baho, o'zbek misolida esa shaxslararo hissiy munosabat cheklovning asosiga aylanadi.





2. Ritorik savol orqali prohibitiv maqsadni ifodalash. Ritorik savolda so'zlovchi axborot olishni emas, mavjud xatti-harakatni qoralashni va uni takrorlamaslikka undashni ko'zlaydi. O'zbek misolida:

"Menga aytmasangiz, kimga aytasiz..."

savoli yaqinlik va ishonch normasiga tayanib, "mendan yashirmang" mazmunini beradi. Ingliz misolida:

"Don't they teach you better manners than that at this school, young man?"

savoli beodob xatti-harakatni qoralab, uni axloqiy norma bilan asoslaydi. Ikki tilda ham ritorik savolning kuchi grammatik yumshoqlikka teng emas: javobning oldindan belgilanganligi muzokara doirasini toraytiradi

3. Modal imkonsizlik va norma orqali bilvosita taqiq. Can't, cannot kabi modal birliklar hamda "meant to" konstruksiyasi ayrim vaziyatlarda jismoniy imkoniyat emas, balki ruxsat chegarasi yoki normani bildiradi:

"You know quite well you're meant to wait for me"

gapida kutish oldindan kelishilgan norma sifatida taqdim etiladi. O'zbek misolida esa amaliy-institutsional sharoit orqali shunga yaqin natija hosil bo'ladi:

"Soat to'qqizdan keyin darvoza berk bo'ladi. Buniyam hisobga ollaring, xo'pmi?"

Bu yerda "kirmang" yoki "kech qolmang" shakli ishlatilmagan; xabar shaklidagi qoida adresatni xulosani o'zi chiqarishga undaydi. Durst-Andersen aletik va deontik modallikni farqlashi shuni ko'rsatadiki, cannot yoki mumkin emas birligi faqat deontik modallik doirasida, ya'ni harakatning ijtimoiy-normativ jihatdan cheklanganini bildirgandagina taqiq maqomiga ega bo'ladi.

4. Ogohlantirish, sabab va mitigatsiya strategiyalari. Ogohlantirish adresatning aniq harakatini amalga oshirmaslikka yo'naltirilgandagina prohibitiv vazifa kasb etadi Xushmuomalalik va umumiy istak shaklidagi mitigatsiyada esa so'zlovchi adresatni qarorga sherik qilib ko'rsatadi:

"It would be nice if we could draw the curtains, don't you think?"

Bunday qurilishda muloyim shakl so'zlovchining asl niyatini yashiradi. Ilyinova va Tsinkerman ko'rsatishicha, mitigatsiyada sabab va modal vosita status masofasini kamaytiradi, biroq taqiqning kutilayotgan natijasini yo'qotmaydi demak, bevositalik darajasi bilan taqiq kuchi mustaqil, biroq o'zaro ta'sirlashuvchi pragmatik parametrlardir.

Xulosa. Ingliz va o'zbek badiiy matnlaridan to'plangan misollar bilvosita taqiqning umumiy mexanizmi prohibitiv maqsadni ikkilamchi nutq akti orqali yetkazish har ikki tilda ham faol qo'llanilishini ko'rsatadi. Ingliz materialida baholash, ritorik savol va norma strategiyalari ko'pincha status va me'yorga, o'zbek materialida esa yaqinlik, hissiy oqibat va amaliy sharoitga tayanadi. Biroq





bu kuzatuv tanlangan badiiy misollar doirasiga tegishli bo'lib, uni ikki xalqning umumiy kommunikativ xususiyati sifatida umumlashtirish uchun miqdoriy jihatdan kengroq va diskurs turlari bo'yicha muvozanatlangan material talab etiladi. Qiyosning asosiy birligi formal konstruksiya emas, balki "vaziyat-strategiya-inferensiya -prohibitiv natija" munosabati bo'lib, bu yondashuv bilvosita taqiqni oddiy inkor, maslahat va ogohlantirishdan ajratish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Руссинова Т.В. Особенности функционирования запрета: на материале русского и английского языков: дис. канд. филол. наук. – Саратов, 2006. – С. 5–8, 65–69, 86–89.
2. Сарайкина О.В. Репертуар языковых средств выражения семантики запрета: дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 2007. – С. 119–143.
3. Потапова Т.Е. Экспликация запрета как «статусный» речевой акт//Lingua mobilis. – 2010. – № 5 (24). – С. 56–60.
4. Омельченко О.В. Директивные речевые акты предписания (разрешения) и запрета в религиозном дискурсе // Вопросы журналистики, педагогики, языкознания. – 2020. – Т. 39. – № 3. – С. 477–486. DOI: 10.18413/2712-7451-2020-39-3-477-486.
5. Ильинова Е.Ю., Цинкерман Т.Н. Прагматика коммуникативной тональности запрета в англоязычном воспитывающем общении//Актуальные проблемы филологии и педагогической лингвистики. – 2021. – № 3.–С. 52–56. DOI: 10.29025/2079-6021-2021-3-52-62.
6. Durst-Andersen P.V. The Russian Imperative as a Mirror of Societal Logic//Humanitarian Aspects. – 2019. – № 37. – P. 74–97.
7. Searle J.R. A Classification of Illocutionary Acts//Language in Society. – 1976. – Vol. 5. – No. 1. – P. 1–23.
8. Dahl R. The Collected Short Stories of Roald Dahl. Vol. II. – 1991.
9. A'zam E. Bayramdan boshqa kunlar: qissa va hikoyalar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.
10. A'zam E. Otoyining tug'ilgan yili: qissa va hikoyalar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981.
11. Qahhor A. Ayb kimda: hikoyalar. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.

